

**NATURE, CUSTOMS AND HOLIDAYS OF THE UZBEK PEOPLE****Temirov Akmal Zakirovich****researcher****Annotation**

This article outlines the socio-philosophical aspects of forming ecological problems, including one's ecological culture, which is one of the pressing issues of our day. The article is based on the ecological traditions of the Uzbek people. The scientific basis of ecological culture promotion on the basis of our ancient holidays and traditions is provided.

Key words. Ecology, culture, tradition, holidays, nature, earth, plant.

ПРИРОДА, ОБЫЧАИ И ПРАЗДНИКИ УЗБЕКСКОГО НАРОДА**Темиров Акмал Закирович****исследователь****Аннотация**

В этой статье изложены социально-философские аспекты формирования экологических проблем, в том числе экологическая культура, которая является одной из важных проблем нашего времени. Статья основана на экологических традициях узбекского народа. Предоставляется научная основа продвижения экологической культуры на основе наших древних праздников и традиций.

Ключевые слова. Экология, культура, традиция, праздники, природа, земля, растение.

**O'ZBEK XALQINING TABIAT BILAN URF-ODAT VA
BAYRAMLARI**



Temirov Akmal Zokirovich

Tadqiqotchi

Annotatsiya

Mazkur maqolada bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri bo'lgan ekologik muammolarni, shu jumladan shaxs ekologik madaniyatini shakllantirishning ijtimoiy-falsafiy jihatini yoritib berilgan. Maqolani yoritishda o'zbek xalqining ekologik an'analariga tayanilgan. Qadimiy bayramlarimiz va urf-odatlar asosida ekologik madaniyatning yuksaltirishni ilmiy asoslari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar. Ekologiya, madaniyat, urf – odat, bayram, tabiat, yer, o'simlik.

O'zbek xalqining yerga, suvga, havoga, olovga, tabiatga ongli munosabati va ularni e'zozlash bilan bog'liq qadimiy urf-odatlar, bayram va marosimlari genezisi uzoq o'tmishga borib taqaladi. Yer, havo, suv va olov (quyosh) Markaziy Osiyoda qadimdan e'zozlab kelingan, ajdodlarimizning zardushtiylikdan tortib to islomgacha bo'lgan barcha dinlar tomonidan tabiat va u bilan bog'liq bayramlar munosib qadrlab kelingan.

Ularni etnik jihatdan o'rganish hozirgi davrda nihoyatda muhim hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov qayd qilganidek: "Markaziy Osiyo xalqlari islomdan oldingi madaniyatning tabiatdan oqilona, uyg'un foydalanish an'analarini o'rganish va ommalashtirishi zarurligini alohida ta'kidlash joiz".[1.131]

Ibtidoiy davrlardan boshlab ajdodlarimizning tabiat, o'simlik va hayvonot dunyosiga bo'lgan ilohiy munosabatlari asosida maxsus bilimlar, e'tiqod va tushunchalar shakllangan. Shu asosida madaniyatning tarkibiy va eng muhim qismi sifatida, tabiat bilan bog'liq milliy an'analar shakllandi va rivoj topdi. Jumladan,



o'zbek xalqi va uning ajdodlari istiqomat qilgan hududning geografik o'rni, iqlimi, tabiati, yil fasllari kabilar asosida mavsumiy odat, bayram va marosimlar tizimi vujudga kelgan.

Markaziy Osiyo xalqlarining asosiy odat, marosim va bayramlari tabiat, yil fasllari bilan bog'liq bo'lgan. Borliqdagi muhim to'rt unsur: (quyosh, havo, yer, suv)ni e'zozlash bilan bir qatorda, ular bilan bog'liq to'rt ulug' kunni ham belgilab, nishonlashga odatlanishgan. Masalan, tabiat uyg'onishi, kun tun tengligi, dala ishlarining boshlanishi pallasida navro'z; yozda quyosh tik bo'lib, tun qisqa, kun uzun davom etganida, havo harorati yuqori darajaga ko'tarilib, suvga ehtiyoj kuchayganda suvga bag'ishlangan tadbirlar – Angom (Vaxshangam), kuzda kun-tun tenglashib, ishning ikkinchi yarmi boshlanganida, dehqonlar daladagi hosilni yig'ib olgan vaqtda Mehrjon(chiri-ruj, nim sarda); qishda – eng uzoq tun va qisqa kun sodir bo'lib, sovuq avjiga chiqqanida (qishqi chilla), isinishga ehtiyoj kuchaygan paytda Sada – olov bayrami (gulxanlarga isinish) kabilarni uyushtirishgan. Milloddan oldin paydo bo'lgan bu bayramlarning barchasi kishilarning tabiiy ehtiyojlari asosida qaror topgan [2.33].

Tabiat va yil fasllari bilan bog'liq afsonalar, rivoyatlar, qo'shiqlar, bayramlar, raqslar, o'yinlar kabi hodisalarni qamrab oladigan ekologik folklor namunalari, hamda go'zallik qonuniyatlaridan kelib chiqib, atrof – voqeylikni o'zlashtirishga yo'naltirilgan, tabiat boyliklarini asrashga qaratilgan harakatlarni o'z ichiga oladigan ekologik ijodkorlik, shaxs ekologik madaniyati rivojini ta'minlashning muhim omili hisoblanadi.

Bayramlar tadqiqotchisi L.A.Tusstyeva bergan ma'lumotlarga qaraganda, Nurota qir – adirlarida gullar ochilgan mahalda qizilgul sayli, Farg'ona vodiysida lola sayli, Samarqandda mevali daraxtlar, jumladan, behi gullaganda, Behi guli sayli (sayli guli behi), Zarafshon vodiysida Boychechak guligardoni, Buxoroda gullar ochilib, bulbullar sayragan vaqtda – Gullargardoni bulbulxon (Bulbulxon qo'shig'i) kabi bayram – sayllari uyushtirilgan. [3.107-108]



Zardushtiylik ta'limoti Markaziy Osiyoda ibtidoiy davrda mavjud bo'lgan tabiat kuchlarini ilohiylashtiruvchi e'tiqodlarga nisbatan mukammalashgan, yakkaxudolik ta'limotidir.

Zardushtiylik dini bilan bog'liq bo'lgan qadimiy marosim, urf – odat va bayramlarimizning qimmatini va afzalliklaridan biri shundaki, ular ajdodlarimizning tabiiy ehtiyojlari zahirida paydo bo'lgan. Shu boisdan ham ular tabiat bilan uzviy bog'liq va har biri mehnat jarayoni hamda kundalik turmushning muhim voqealariga bag'ishlangan.

Bu an'analarining izchil rivoji davomida yetti "barhayot azizlar" va ularning mifologik tabiatini o'zida timsollashtirgan yetti narsa – havo, tuproq, suv, o'simlik, sigir, odam va olov sharafiga yetita marosim hamda bayramlarni o'tkazish udumi kelib chiqqan. Ana shunday bayramlardan ikkitasi baxt – saodat, ezgulik, samoiy tartibot va haqiqat ramzi sifatida ulug'langan iloha Asha nomi bilan bog'liq holda kelib chiqqan bo'lib, bu qadimiy udumlarning asrlar davomida muayyan o'zgarishlarga uchragan ko'rinishlari xalqimizning yilboshi – Navro'z bilan aloqador an'anaviy marosimlari tizimida saqlanib qolgan.

Bahor! Tabiatning uyg'onish fasli, xalq e'tiqodiga dahldor xilma – xil udum va an'analar bilan ziynatlangan fasli. Shunday an'analarning eng ulug'i va qadimiysi – shodlik va orzular bayrami Navro'zdir.

Navro'z sharq xalqlari o'rtasidagi islom qabul qilingunicha mavjud edi. Shu boisdan uni sharqona bayram sifatida tavsiflash an'anaga aylangan. Aslini olganda Navro'z dehqonchilik madaniyati shakllanishi ta'sirida qaror topgan.

Navro'z "qozon to'ldi" marosimidan boshlanib, sumalak, "kelin ko'rdi", halim sayli, lola (qizil gul yoki lolaqizg'aldoq sayli), boychechak, bir birlarining hol – ahvolidan xabar olish, hashar kabi o'nlab an'analar bilan aprelning oxiri va hatto mayning o'rtalarigacha davom etgan.

Navro'z Sharq xalqlarida yangi yilning boshlanishi hisoblanadi. Yangi yilning yashnoq va farovon bo'lishi istagida xonadonlarda maxsus idishlarda



bug'doy ko'kartirilib, undan Navro'z taomi sifatida sumalak tayyorlangan. Sumalak – jamoa taomi, muqqadas ilohiy taom, unga suronli qish vaziyatidan chiqqan mehnat ahli to'kinlik ramzi sifatida qaragan, unga yetishgani uchun shukronalar aytgan. Shu xususiyatga ko'ra, uni shodu – xurramlik bilan maxsus rasm – rusumlarga amal qilgan marosim darajasida nishonlangan.

Navro'z dasturxoniga yetti xil taom tortilib, to'kinchilik orzu qilingan. Navro'zda qo'ni – qo'shnilar bir – birlarinikiga o'tishib, bir – birlarini qutlagan, arazchilar yarashishgan. Navro'z dasturxoni doim ochiq to'rgan, xullas mehmonovozlik kayfiyati barcha xonadonlarda hukm surgan.

Xullas, xalqimizning bu bayramda bayramona yasanib, saylga chiqishlari, xilma – xil taomlar tayyorlagani, turli xil o'yin – kulgular va bellashuvlar, musobaqalar o'tkazishi navro'z bayramining udumlaridan hisoblanadi.

Ma'lumki, bahor uyg'onish fasli, tabiatning yangilanishi, gulchechaklarning ochilish davridir. Bahorgi marosimlar silsilasida gul sayillari alohida muhim o'rin tutadi. Yurtimizning tog' va tog'oldi hududlarida "boychechak xabari", "navro'z gul sayli", "lola sayli" marosimlari o'tkazilgan bo'lsa, boshqa joylarda "qizil gul", "guli surx", "guli armug'on" sayllari urf bo'lgan.

"Boychechak sayli" bu erta ko'klamda adirlarda, tog' va dalalarda qor erishi bilan boychechak unib chiqqanda bolalar ana shu gullarni terib olib uyma – uy olib yurishlari udumidir. Mamlakatimizning hududida an'anaviy tarzda o'tkazib kelingan gul sayllarining eng qadimiysi va keng tarqalganidir. Boychechak chiqqanligi qish – qirovli kunlar ortda qolib, ko'klam yaqinlashganligini anglatadi. Shuning uchun keksa va kasal odamlar bolalar olib kelgan boychechakni yuz-ko'zlariga surtib, undan yaqinlashayotgan bahor hidini tuyganlar.

Yalpiz terish – ariq bo'ylaridan, soylar qirg'ogidan yalpiz terib dam olib, undan har xil taomlar tayyorlashgan. Bahorning ilk giyohlaridan bo'lmish yalpiz, otquloq, ismaloqlardan terilib , ulardan somsa, chuchvara kabi taomlar tayyorlashib, o'zaro baham ko'rishgan, suhbat qurishgan. Ulardan tayyorlagan



pishiriqlarni qariyalarga, bemorlarga eltib, ular holidan xabar olish savob ish hisoblangan.

Chuchmoma sayli – erta bahorda bolalarning dalalarga chiqib, chuchmoma terishi ilk bahor kunlaridagi muhim marosimlardan biri hisoblanadi. Bolalar chuchmoma bilan birgalikda boshqa gullardan ham terib, tabiat qo'ynida o'yin kulgi qilishib, dam olishgan. Chuchmomaning oqish tomiri mazali bo'lib, bolalar saqich kabi uni chaynashgan. Turli vitaminlarga boy mazasidan bahramand bo'lishgan. Ota – onalariga, opa singillariga sovg'a qilishgan.

Suv sayli – katta ma'naviy – tarbiyaviy ahamiyatga ega. Suv sayliga tomoshabinlarning suv bilan kutib olinishi, qadimiy “Suv ma'budalari”ning chiqishlari, suvga bag'ishlangan sher, maqol, hajviya raqs, qo'shiqlarning yangrashi, fol'klor – etnografik dastalar ijrosidagi suvga bag'ishlangan marosimlar tadbirga o'ziga xos fayz beradi. Bu tadbir yordamida hayot manbayi bo'lish suvni qadrlash, e'zozlash, tejash, tabiatni himoya qilish bilan bog'liq ekologik tarbiya ishlarini olib borish mumkin.

Poliz mahsulotlari pishganda hosilini yig'ishtirib olish munosabati bilan o'tkaziladigan bayramlar orasida Qovun sayli alohida o'rin tutadi.

Markaziy Osiyoda, jumladan, O'zbekistonda yetishtiriladigan qovunlarning dovrug'i dunyoga taralgan. Shu sababli, Qovun sayli, faqat respublikamizda emas, balki qo'shni davlatlarda ham o'tkaziladi.

Agar poliz mahsulotlari (qovun,tarvuz)dan mo'l hosil yetishtiriladigan joylarda Qovun sayli o'tkazish an'ana tusini olayotgan bo'lsa, uzum yetishtiriladigan joylarda Uzum sayli (masalan Urgutda), anor yetishtiriladigan hududlarda Anor sayli (masalan Quvada), bog'dorchilikka ixtisoslashgan, olma yetishtirishda mashhur bo'lgan joylarda Olma sayli (masalan Namanganda), kabi bayram – sayllar o'tkazilishi ham an'anaga aylangan.

Qishloq xo'jaligi ishlari bilan mashg'ul bo'lgan barcha kasb egalari – paxtakoru – g'allakor, sohibkoru – tillakorlar hayotida hosilini yig'ishtirib olish



munosabati bilan o'tkaziladigan marosim va bayramlar azal – azaldan alohida o'rin tutgan. Dehqonlar qishloq xo'jalik ishlarining tugallanishini qadim zamonlardan buyon to'y, sayil va bayram sifatida nishonlab kelingan.

“Mehrjon bayrami kuzgi teng kunlikni ta'kidlab, bir tamondan koinot va yerga jon ato etib turgan quyoshni qadrlashga da'vat qilgan bo'lsa, ikkinchidan, barchani qish g'amini yeyishiga undagan”. [4.27]

1990 yilda Toshkentning “Tojiyev” va “Mevazor” mahallalarida, Smarqandning “Registon” maydonida, Andijon viloyatining Jalolquduq tumanida, Qashqadaryo viloyatining Yakkabog' shahrida “Mehrjon” bayrami zo'r shodiyona sifatida nishonlandi.

“Mehrjon” olamga nur, harorat va hayot berib turgan “Bobo quyosh”ga bo'lgan minnatdorchiligimizni aks ettiradi. U koinot, tabiatni chuquroq anglashga undaydi, “Mehrjon” ona yerni ardoqlash, dehqon mehnatini e'zozlashga da'vat etadigan, rahm – shavqat, saxovat, mehr – muruvvatni ulug'laydigan xalq bayrami bo'lib qoldi.

Xulosa qilib aytaganda, bugun biz tarixiy bir davrga – xalqimiz o'z oldiga ezgu va ulug' maqsadlar qo'yib, tinch – osoyishta hayot kechirayotgan, demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurish yo'lida ulkan natijalarni qo'lga kiritayotgan bir davrda yashamoqdamiz.

Biz o'z taqdirimizni qo'limizga olib, azaliy qadriyatlarimizga suyanib, yashayotganimiz, xalqimiz asrlar davomida orziqib kutgan ozod, erkin va faravon hayotni barpo etayotganimiz, bunday imkoniyatlarning barchasini aynan mustaqillik berganini bugun hammamiz chuqur anglaymiz.

Ota – bobolarimizdan bizga qoldirilgan boy udum, urf – odat, rasm – rusum, an'ana va xalq sayillarini asrab – avaylab, uni bugungi zamondoshlarimiz badiiy – estetik qarashlari bilan uzluksiz ravishda ijodiy boyitib borish yosh avlod tarbiyasining yetakchi omillaridan biridir.

Asrlar davomida avloddan avlodga o'tib an'anaga aylangan, tabiat bilan



bog'liq marosim va bayramlar dehqonlar hayoti, turmushi, mavsumiy mehnat jarayonida va ma'naviy olamida muhim rol o'ynab, yoshlarning ekologik ongi shakllanishida tabiat boyliklarini qadrlash, asrab – avaylash, muayyan yil fasllarida vujudga keladigan go'zaliklardan zavqlanish, mehnatning qadriga yetish, insoniylikni ulug'lash kabi vazifalarni bajarishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar

- 1.I.A.Karimov. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida.T.6.-Toshkent. "O'zbekiston", 1998., 131-bet.
- 2.U.H.Qoraboyev. O'zbek xalq bayramlari. Toshkent. "Sharq", 2002, 33-bet.
- 3.Тульцева Л.А. Современные праздники и обряды. М.наука, 1985, стр. 107 – 108.
- 4.U.H.Qoraboyev. O'zbek xalq bayramlari. Toshkent. "Sharq", 27-bet.
5. www.ziyounet.uz.
- 6.www.bilim.uz